



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ORIENTAL UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Oriental universiteti rektori**

**N.Mamataxunov**



Yil “ ”

**STARTAP**

**“KO‘PINCHA XATO YOZILADIGAN SO‘ZLAR  
LUG‘ATI”**

**Fan yo‘nalishi:** filologiya  
*Ilmiy-texnik kengashlar yo‘nalishiga mos ravishda*

**Startap turi:** amaliy  
*amaliy, innovatsion, fundamental*

**Startap rahbari:** fil. fan. nomz., dotsent N.Axmedova  
*FISh, ilmiy darajasi va unvoni*

*Startap bajarilayotgan tashkilot yuridik manzili:  
Olmazor tumani, Noraztepa qo‘chasi, 52A*

**TOSHKENT – 2026**

**STARTAP LOYIHASI PASPORTI**

№	Talab etiladigan ma'lumotlar	Ma'lumotlar
1	<b>Loyihaning nomi</b> <i>(o'zbek, rus ya ingliz tillarida)</i>	"Ko'pincha xato yoziladigan so'zlar lug'ati" "Словарь часто неправильно написанных слов" "Dictionary of Frequently Misspelled Words"
2	<b>Loyihaning amalga oshirish faoliyat turi</b> <i>(xizmatlar, ishlab-chiqarish va boshqalar)</i>	Ta'lim xizmatlari
3	<b>Loyiha rahbari</b>	fil. fan. nomz., dotsent N.Axmedova
4	<b>Loyiha haqida qisqacha ma'lumot</b>	Mazkur loyiha o'zbek tilida ko'pincha xato yoziladigan so'zlarni tizimli ravishda jamlash, tasniflash va tahlil qilish hamda ularni yagona imlo lug'ati holiga keltirishga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi turli imlo qoidalari, talaffuz ta'siri, fonetik va grafik omillar sababli yuzaga keladigan yozuvdagi xatoliklarni aniqlash, ularni normativ shakllar bilan solishtirish va to'g'ri yozuv me'yorlarini ilmiy asosda belgilashdan iborat. Ushbu lug'at tahririyat xodimlari, talabalar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar hamda keng jamoatchilik uchun ishonchli amaliy va ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u o'zbek tili imlosidagi dolzarb muammolarni yoritish, yozuv madaniyatini oshirish hamda zamonaviy o'zbek adabiy tilining imlo me'yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.
	<b>Tashkilot</b>	Oriental universiteti
	<b>Texnologiya/xizmat/mahsulotning qo'llanish sohasi</b>	Filologiya
	<b>Biznes loyiha asosiy mazmuni</b> <i>(bir necha jumlarlar orqali loyiha mazmunini izohlang)</i>	Mazkur biznes loyiha o'zbek tilida ko'pincha xato yoziladigan so'zlarning yagona raqamli va bosma bazasini yaratish, ularni tizimlashtirish va foydalanuvchilarga qulay shaklda taqdim etishga qaratilgan. Loyiha g'oyasi o'zbek tili imlosida keng tarqalgan xatoliklarni bartaraf etish, yozma nutq madaniyatini oshirish hamda imlo me'yorlariga rioya etish zaruratidan kelib chiqqan. Loyihaning asosiy maqsadi turli fonetik, morfologik, grafik va me'yoriy omillar sababli ko'pincha noto'g'ri yoziladigan so'zlarning qiyosiy-imlo lug'atini tuzish, ularning to'g'ri (normativ) shakllarini ilmiy asosda belgilash, tartibga solish hamda ularni ilmiy jamoatchilik va keng ommaga ochiq holda taqdim etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish orqali tahririyat xodimlari, matbuot kotiblari, o'qituvchilar, talabalar va tadqiqotchilar uchun

		<p>vaqti to'lovchi, ilmiy xizmatlarining sifatini oshirishi imkonini beradigan mahsulot yaratiladi.</p> <p>Loyiha davomida mahsulot sifatida bozorni va xizmatni imlo lug'at, shuningdek, o'zbek tilining to'g'ri yozilishini ta'kidlash imkonini beradigan ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilishi kutilmoqda.</p> <p>Mazkur loyiha asosiy maqsadlarini oshirishda filolog olimlar, magistrant va doktorantlar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabulari, mahsulotlar, davlat tashkilotlari, OAV vakillari hamda o'zbek tili bilan ishlovchi barcha osha mutavassitlari belgilangan. Loyiha natijasi o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga, yozma nutq madaniyatini yuksaltirishga hamda takroriy imlo xatolarining oldini olishga xizmat qiladi.</p> <p>Biznes maqleyi nazaridan loyiha intellektual xizmatlar modeli asosida rivojlantiriladi. Daromad manbalari sifatida maxsus imlo va terminologik bazalardan foydalanish, buyurtma asosida imlo lug'atlarini tayyorlash, ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik, raqamli ma'lumotlar bazasi joriy etish ko'zda tutiladi.</p> <p>Xulosa qilib aytganda, mazkur biznes loyiha o'zbek tilida xatosiz yozuv madaniyatini shakllantirish, imlo tizimini tartibga solish va zamonaviy raqamli muhitga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy jihatdan barqaror, ijtimoiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega intellektual mahsulot yaratishni nazarda tutadi.</p>
8	<p><b>Loyiha joriy etiladigan hudud va tarmoq nomi</b></p>	<p>O'zbekiston Respublikasi, filologiya sohasi</p>
9	<p><b>Loyihaning hudud va tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri</b> (hududdagi va tarmoqdagi muammolarni hal qilishda loyiha o'zini va roli ko'rsatilishi lozim)</p>	<p>Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasida ta'lim, ilm-fan va ilmiy-axborot xizmatlari sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ko'pincha xato yoziladigan so'zlar imlo lug'atining mobil ilovasini yaratish va muomalaga kiritish hududiy yozma nutq madaniyati va savodxonlikni takomillashtirishga, davlat tilining mavqeyi va nufuzini oshirishga xizmat qiladi.</p> <p>Bugungi kunda amaliy tilshunoslik sohasidagi asosiy muammolardan biri — ko'p uchraydigan imlo xatolarining raqamli resurslarda tarqoqligi va tizimlashtirilmaganligidir. Ushbu loyiha aynan shu muammoni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikni yagona ilmiy-axborot maydoniga birlashtiradi.</p> <p>Loyihaning amalga oshirilishi natijasida to'g'ri yozish va tahrir qilish uchun sarflanadigan vaqt</p>

		<p>hamda xarajatlar qisqaradi. Bu esa mehnat umumdorligini oshirib, ilm-fan va ta'lim sohasining iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.</p> <p>Xulosa qilib aytganda, mazkur loyiha hudud va tarmoq miqyosida mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan, iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion intellektual tashabbus hisoblanadi.</p>
10	<p>Qo'llanilayotgan texnologiyalar, ularning yangilik darajasi va intellektual mulkni himoya qilish borasida ko'rilgan choralar haqida ma'lumot</p>	<p>Mazkur loyihani amalga oshirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ilmiy-axborotlarni boshqarish vositalaridan samarali foydalaniladi. Xususan, mavjud lug'atlar va kuzatishlar natijasida elektron va bosma lug'at, ma'lumotlar bazasi joriy etiladi.</p> <p>Loyihada ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun ommaviy axborot vositalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda foydalanuvchi uchun qulay qidiruv va saralash mexanizmlari qo'llaniladi. Ushbu texnologiyalar lug'atga mos so'zlarni tezkor izlash, tahlil qilish va mazmuniy jihatdan boyitish imkonini beradi.</p> <p>Mazkur loyiha nafaqat an'anaviy imlo lug'atlari va elektron lug'atlarni zamonaviy raqamli formatga uyg'unlashtiradi, balki yozma nutq amalda qo'llanadigan xizmatlar sohasida innovatsion yechim sifatida namoyon bo'ladi.</p> <p>Intellektual mulkni himoya qilish doirasida loyiha huquqiy choralar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Lug'at tarkibidagi ma'lumotlar mavjud lug'atlar, rasmiy va norasmiy yozishmalar, ommaviy axborot vositalari asosida shakllantiriladi. Kirill va lotin yozuvi qoidalari har xilligi bilan bog'liq so'zlar aniqlanib, alohida tavsiflanadi.</p> <p>Elektron lektron va bosma lug'atdan foydalanish shartlari ishlab chiqiladi va foydalanuvchilar uchun mualliflik huquqini hurmat qilishga doir qoidalar belgilanadi.</p> <p>Shuningdek, loyiha mahsuloti sifatida yaratilgan bosma va elektron imlo lug'ati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi rejalashtiriladi.</p> <p>Xulosa qilib aytganda, mazkur loyiha "Ko'pincha xato yoziladigan so'zlar lug'ati" orqali o'zbek tilida yozma nutq madaniyatini yuksaltirish, imlo xatolarini kamaytirish, ilmiy-axborot muhitini raqamlashtirish va tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, ilmiy, amaliy, ijtimoiy va innovatsion ahamiyatga ega intellektual tashabbus sifatida baholanadi.</p>
11	Biznes modeli	B2B
12	Loyihaning bosqichlari	1. Loyihani rejalashtirish va maqsadni

		<p><b>aniqlash</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalarini belgilash.</li> <li>— Ko'pincha xato yoziladigan so'zlar lug'ati konsepsiyasini ishlab chiqish.</li> <li>— Imlo xatolarini aniqlash mezonlarini shakllantirish.</li> <li>— Tadqiqot doirasini belgilash (darsliklar, OAV, internet manbalari, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar).</li> </ul> <p><b>2. Ma'lumotlarni to'plash</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— Ko'pincha xato yoziladigan so'zlar bo'yicha ilmiy, ta'limiy va amaliy manbalarni yig'ish.</li> <li>— O'zbek va xorijiy olimlar ishlari, darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar, OAV matnlari va internet resurslarini tahlil qilish.</li> <li>— Manbalarni elektron va bosma formatlarda jamlash.</li> </ul> <p><b>3. Ma'lumotlarni saralash va tasniflash</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— So'zlarni alifbo tartibi bo'yicha guruhlash.</li> <li>— Xato va normativ (to'g'ri) variantlarni aniqlash.</li> <li>— Lingvistik tasnif: <ul style="list-style-type: none"> <li>fonetik,</li> <li>morfologik,</li> <li>grafik,</li> <li>semantik,</li> </ul> </li> <li>me'yoriy imlo xatolari bo'yicha ajratish.</li> <li>— Izohlar va normativ asoslarni belgilash.</li> </ul> <p><b>4. Ma'lumotlarni raqamli bazaga joylashtirish</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— Elektron imlo ma'lumotlar bazasini yaratish.</li> <li>— Elektron lug'atni shakllantirish.</li> <li>— Qidiruv, filtr, saralash va tavsiya mexanizmlarini joriy etish.</li> <li>— So'zlarning xato/to'g'ri variantlarini avtomatik aniqlovchi tizimni ishlab chiqish.</li> </ul> <p><b>5. Loyihaning natijalarini bosma va elektron shaklda taqdim etish</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— Raqamli imlo lug'ati ma'lumotlar bazasini yaratish.</li> <li>— Interaktiv PDF/elektron lug'at shakllarini tayyorlash.</li> <li>— Ta'lim muassasalari, OAV va davlat tashkilotlariga joriy etish.</li> </ul>
13	<b>Loyihani amalga oshirish muddati</b> (loyihaning boshlanishi va tugashi kun, oy va yillarda)	2026-yil 12-fevraldan 2027-yil 12-fevralgacha
14	<b>Loyihaning o'zini-o'zi qoplash muddati</b>	2026-2027-yil
15	<b>Umumiy moliyalashtirish hajmi</b> (mln so'mda)	15 mln

16	<b>Shu jumladan:</b>	
17	<b>Vazirlikning moliyaviy mablag'lari manbalari hisobidan moliyalashtirish miqdori (mln so'mda)</b>  <b>Birgalikda moliyalashtirish hajmi Cost sharing, agar mavjud bo'lsa (mln so'mda)</b>	0 so'm  15 mln so'm
18	<b>Kalit so'zlar</b> (10 tadan kam bo'lmagan kalit so'zlar (alohida vergul bilan ajratiladi)	imlo qoidalari (orfografiya), talaffuz va imlo, paronimlar tahlili, lug'atshunoslik (leksikografiya), imloviy xatoliklar, normativ lug'atlar, o'zlashma so'zlar imlosi, tutuq belgisi, yozma nutq madaniyati, so'z shakllari, orfografik tamoyillar, morfologik va fonetik xatolar, interfaol lug'atlar, til me'yorlari, tahrirlash

## Loyihaning biznes-rejasi

### 1. Rezyume

Loyihaning nomi: "Ko'pincha xato yoziladigan so'zlar lug'ati"

Loyihani amalga oshiradigan tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli: ta'lim xizmatlari

Loyihani amalga oshirish joyi: Oriental universiteti

Loyiha uchun zarur moliyaviy resurslar summasi: 15 mln

### 2. Loyihaning barcha ijrochilari haqida ma'lumot

1. Sharasulova Shirin Maxamadsalixovna – loyiha ishtirokchisi, fil., fan., nomzodi, dotsent

2. Akmalova Robiya Baxodir qizi – loyiha ishtirokchisi, Oriental universiteti 2-bosqich talabasi

3. Iskandarova Muslima Baxodir qizi – loyiha ishtirokchisi, Oriental universiteti 1-bosqich talabasi

### 6. Loyihaning xarajatlar smetasi

№	Xarajat nomi	Miq dor/ vaqt	Narxi (so'm)	Asoslash/ izoh
1	Loyiha manbalarini to'plash	6 oy	4,500,000 so'm	Kitoblar, maqolalar, rasmiy va norasmiy yozishmalar, onlayn resurslar
2	Elektron baza yaratish	2 oy	3,000,000 so'm	Excel yoki Access dasturiga ma'lumotlarni kiritish
3	Ma'lumotlarni tasniflash va tahlil qilish	3 oy	2,500,000 so'm	Lingvistik va bibliografik tasniflash, statistik tahlil
4	Grafik va diagrammalar tayyorlash	1 oy	1,500,000 so'm	Tahlil natijalarini alifbo tartibida tizimlashtirish
5	Loyihani chop etish va taqdimot materiallari	1 oy	3,000,000 so'm	Bosma va elektron lug'at, interaktiv taqdimotlar
6	Umumiy xarajatlar	-	15,000,000 so'm	-

Tillar-1 kafedrasi mudiri:



S. Rustamiy

Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi menejeri:

Signature of B. Mamataxunov

B. Mamataxunov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor:

Signature of M. Nasirova

M. Nasirova

Rektor:



Signature of N. Mamataxunov

N. Mamataxunov